KOUCHING YONDASHUV ASOSIDA MUTAXASSISLARNI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MAZMUNI

Ya.A.Nurumbekova
Guliston davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologi kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Mazkur maqolada kouching yondashuvi asosida mutaxassislarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, maqsad va vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, kouching texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, ular orqali pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida kouching yondashuvini joriy etishning samarali usullari va mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari mutaxassislarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va kasbiy faoliyatga moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: kouching yondashuvi, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik faoliyat, ta’lim texnologiyalari, kompetensiya, innovatsion yondashuv, mustaqil fikrlash, pedagog kadrlar, ta’lim samaradorligi, rivojlantirish strategiyalari.

Innovatsion yondashuv asosida bo‘lg‘usi mutaxassislarda kouching kompitensiyalarini rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy ijodkorlikni, refleksiyani shakllantirishning ilmiy asosi bo‘lib hisoblanadi va ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning sub’ekt va mutaxassis sifatida bosqichma-bosqich, uzluksiz o‘zini-o‘zi takomillashtirishi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Kasb pedagogik tayyorgarlikda innovatsion yondashuv asosida kouchingga yo‘naltirilgan o‘qitish tizimini joriy etish, nazariy-metodologik va amaliy kasbiy tayyorgarlik darajasida sezilarli

o‘zgarishlarga olib keladi. Shuningdek, talabalarga murakkablik darajasi o‘sib boruvchi, tafakkurni shakllantiruvchi, mustaqil izlanishni talab etuvchi ijodiy, tanqidiy rivojlantiriga, muammoli vaziyatlarni loyihalashtira olish, modellashtirish, konstruksiyalash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘zining bor imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va aniqlab undan foydalanish, ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘lgan kasbiy pedagogik qobiliyat va kompetentlikni samarali shakllantirish to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rganish mumkin. Mutaxassislar tayyorlashning an’anaviy yondashuvi va innovatsion kouchingga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qiyosiy tahlili orqali innovatsion yondashuv asosida ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari kelib chiqadi (1-jadval).

1-jadval

Ta’limga an’anaviy va innovatsion kouchingga yo‘naltirilgan yondashuvlarni qiyosiy tahlili

t/r	**Ta’lim elementlari**	**An’anaviy yondashuv**	**Innovatsion kouing kompitensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv**
1.	Ta’lim maqsadi	Aniq soha uchun DTS va malakatalabi doirasida bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega mutaxassis kadrlar tayyorlash	Mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori malakali, kognitiv, psixomotor, kreativ, kouching kompitensiyasiga ega, kasbiy pedagogik kompetentli mutaxassis kadrlar tayyorlash
2.	Ta’lim mazmuni	O‘qitish jarayonida talaba, mutaxassislar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi va xarakteri. U tegishli me’yoriy hujjatlar shaklida rasmiylashtiriladi.	Me’yoriy hujjatlar: ta’lim standartlari, o‘quv reja, dasturlar. talaba, mutaxassislarni pedagogik malaka va kouching kompitensiyasiga ega, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi
3.	Ta’limni tashkil etish shakllari	Kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning yig‘indisini faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribalarini o‘tkazishga qaratilgan maxsus ishlarni tashkil qilish	Intensiv kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish, mustaqil izlanish, loyihalashtirish, modellashtirish; Zamonaviy innovatsion pedagogik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar, kouching texnologiyasining tashkiliy shakllari.
4.	Pedagogik jarayonni tashkil etish	O‘quv (ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) maqsadlar belgilanadi, shart-sharoit aniqlanadi, natija belgilanadi, jarayonning kechishi loyihalashtiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, o‘quvchilar baholanadi	O‘quv (kognitiv, psixomotor, affektiv) maqsadlari belgilanadi, pedagogik-psixologik shart-sharoit aniqlanadi, aniq natija belgilanadi, jarayonning kechishi innovaion kouchingga asoslangn yondashuv asosida loyihalashtiriladi, innovatsion yondoshuvlar asosida kouching texnologiyai, kompyuter texnologiyalaridan uyg‘unlikda foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, talaba, magistrlar reytingi, kasbiy etikasi ko‘rsatkichlari individual aniqlanadi
5.	Pedagogik jarayonni	Og‘zaki metodlar, ko‘rsatmali	Og‘zaki metodlar, ko‘rsatmali metodlar,

	amalga oshirish metodlari	metodlar, amaliy metodlar	amaliy metodlar, kouchingmetodlari, muammoli izlanuvchan metodlar
6.	Pedagog ning o‘rni	Konkret fanni boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro bog‘lagan holda uning o‘qitilish maqsad va vazifalarini belgilaydi, talaba va magistrlarning o‘quv-bilish faoliyatini ta’minlaydigan o‘qitishning mazmuni, shakl va metodlarni qo‘llaydi.	Innovatsion yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion, motivatsion, intellektual imkoniyatlarini aniqlaydi, o‘quv-bilish faoliyatini kouchingga koampitensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirish usullari, o‘qitishning mazmuni, zamonaviy shakl va metodlaridan foydalanadi. Bo‘lajak mutaxassislarga qo‘yiladigan kasbiy talablarini hisobga oladi hamda tobora takomillashtirib borish, kouchingga yo‘nalgan ta’lim-tarbiya va bilish ahamiyatini kasb etadi.
7.	Ta’limni boshqarish	Talaba va magistrlarning o‘quv-bilish faoliyatini bevosita boshqarish	Talaba va magistrlarning o‘quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o‘z ustida ishlab, kouching kompitensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish
8.	Ta’lim natijalarini baholash	Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishi nazorat qilinadi, bilim va ko‘nikmalari baholanadi	Talaba va magistrlarning Kasbiy, shaxsiy, kouching kompitensiyalari baholanadi

Ta’lim-tarbiya maqsadlari: ta’lim-tarbiyaning maqsadi ko‘zlangan aniq natijaga intilishdir. Kasbiy pedagogik faolitni tashkil etishga, aniq natijaga qaratilgan bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya ishining barcha komponentlari: mazmun, tashkiliy shakl, metod va vositalari maqsadga bo‘ysundiriladi: shuning uchun ham pedagogikada maqsad eng muhim muammolar sirasiga kiradi. Innovatsion kouching kompitensiyasini rivojlantirigna yo‘naltirilgan yondashuvda ta’lim jarayoni ishtirokchilari nimaga intilishi zarurligi, qanday natijaga erishishi kerakligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy pedagogik tayyorgarlik faoliyatida maqsad aniq vazifalar tizimi sifatida amalga oshiriladi. Maqsad va vazifalar o‘zaro yaxlit bo‘lib ular qismlar (komponent) sifatida uyg‘unlashadi.

Ta’lim mazmuni – belgilangan maqsadga muvofiq yo‘nalish va hajmiga ega bo‘ladi. U tegishli me’yoriy hujjatlar: ta’lim standartlari, o‘quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.Ta’lim mazmuni Talaba va magistrlarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimidir. Innovatsion kouching kompitensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvda ta’lim mazmuni bo‘lajak mutaxassislarda kouching kompitensiyasiga ega mutaxassisnining mahsuldor faoliyatini rivojlantirish tizimini tashkil etadi.

Ta’lim jarayonini tashkil etish shakllari – ta’lim jarayoni bo‘lgan tizimdir. Ta’lim jarayoni sifatida bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning yig‘indisini faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribalarini o‘tkazishga qaratilgan maxsus ishlarni tashkil qilish. Ta’lim -tarbiya jarayoni ishtirokchilarining ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko‘rinishi ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi. Ta’limning tashkiliy shakllari quyidagi turlani e’tirof etiladi:

1. O‘quvchilar soniga ko‘ra: ommaviy, jamoaviy, guruhli, individual.
2. O‘qitish joyiga ko‘ra: ta’lim-tarbiya muassasalarida va ta’lim muassasalaridan tashqari (seminarlar, seminar-treninglar, kouching sessilai, suhat va shu kabilar) da

3. O‘quv vaqtining davomiyligiga ko‘ra 80 minutlik, juftlik (treninglar 120 min.) kouching sessiyalar (80 yoki 90 minutlik) qo‘ng‘iroqsiz (ta’limi va amaliyoti).

Innovatsion kouching kompitensiyasini rivojlantiriga yo‘naltirilgan yondashuvda intensiv kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlikni amalga oshirish, zamonaviy bilimlar, kouching ko‘nikmalar va malakalarning yig‘indisini faoliyat va munosabatlarning tajribalarini o‘tkazish, kouching kompitensiyasiga ega bo‘lib yetishish texnologiyasining tashkiliy shakllari, ta’limni tashkil etish shakllari takomillashtiriladi.

Pedagogik jarayonni tashkil etishda ta’lim-tarbiya maqsad va vazifalari qo‘yiladi, jarayon ishtirokchilarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlari amalga oshiriladi, belgilangan tashkiliy shakl, metod va vositalardan foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, talaba, magistrlar rag‘batlantiriladi, pedagogik jarayon bilan boshqa jarayonlar orasidagi aloqadorlik ta’minlanadi.

Pedagogik jarayonda teskari aloqadorlik (qaytma aloqa, fidbek) muhim bo‘lib, u tezkor boshqaruvchilik, qarorlar qabul qilish xulosalar chiqarish imkonini beradi. Teskari aloqa jarayonini sifatli kechishini ta’minlash lozim bo‘lib, uning rivojlanishi va mustahkamlanishiga har pedagog muhim masala sifatida ustivor ahamiyat berishi zarur.

Innovatsion kouchinga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quv (kognitiv, psixomotor, affektiv) maqsadlari belgilanadi, pedagogik-psixologik shart-sharoit aniqlanadi, aniq natija belgilanadi, jarayonning kechishi innovatsion kouching yondashuv asosida loyihalashtiriladi, akoching texnologiyalar, kompyuter texnologiyalaridan uyg‘unlikda foydalaniladi, qulay shart-sharoit yaratiladi, talaba va magistrlar reytingi, kouching oid bilim va ko‘nikma,malaka ko‘rsatkichlari individual aniqlanadi.

Pedagogik jarayonda ta’lim-tarbiya metodlarini tanlash markaziy masalalardan biri bo‘lib, “Metod” ob’ektiv olamni bilish, tadqiq qilish usulidir. Ta’lim metodi kouchingga oid bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy, kasbiy fazilatlarni o‘zlashtirish maqsadida qo‘llaniladigan pedagog va talaba, magistrlarning hatti-harakat usullari tizimidir.

Pedagogik jarayonni amalga oshirish metodlari - ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materialiga nisbatan mustaqil fikrlash, tanqidiy yondoshish malakalarini shakllantirish hamda ichki imkoniyatlarni to‘liq anglab, to‘g‘ri yo‘naltirish aniq qarorlar qabul qilish mahsuldor o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda kouching metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kouching metodlaridan talaba, magistrlarning mustaqil kouchga oid o‘quv-bilish faoliyatlarini rivojlantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bunday metodlar o‘quv materialini mustaqil ravishda mohiyatiga tushungan holda o‘z ichki imkoniyatlarini anglab yetish, to‘g‘ri yo‘naltirish, muammoli vaziyatlardan onson chiqish, aniq mustaqil qarorlar qabul qilish, boshqaruvchilik qobiliyatlarini o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Talaba va magistrlarda ijodiy, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, innovatsion kouching yondashuv negizida ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirishga nisbatan kouching kompetensiyasi, kouchigga yo‘nalganlikni shakllantirish hamda mahsuldor o‘quv-bilish faoliyatlarini tashkil etishda integrativ dars, ishchanlik yoki rolli o‘yin, seminar-trening, kouching, trening, evristik suhbat kabilardan foydalaniladi, (“GROV”, “Kouching g‘ildiragi”, “Joxori oynasi”, “Kovi kvadrati”, “CATWOE” “SWOT”, “SMART”, “SCORE”, “Sinektika” kabi metodlar, munozarali kouchingtexnologiya, rivojlantiruvchi kouchingtexnologiya, treningli va o‘yinli kouchingtexnologiyalar metodlari qo‘llaniladi.

Kouching metodlari ham (rivojlanish usullari, kouchtexnologiyalar, kouching, trening jarayonlari) madaniy – ijtimoiy g‘oyalarning tiklanishi, ruhiy qo‘llab-quvvatlashdan, imkoniyatlarni ko‘rsatish va ruhlantirish, o‘z-o‘zini boshqarishdan iborat. Unda quyidagilar:

-Talaba va magistrlarning o‘z ijod qobiliyatini boshqara olishi va bu jarayondagi faoliyatini yuqori cho‘qqiga ko‘tarish.

-Shaxs intellektining yuqori bosqichga yetishidagi ob’ektiv va sub’ektiv birliklardagi ziddiyatli ta’sir omillar.

-O‘zini-o‘zini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi tashkillashtirish va boshqarish.

Umumlashtirib aytganda o‘z-o‘zini rivojlantirish, yo‘lga solish va qayta tiklash, kasbiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini ko‘rib, sabab va oqibatlarini anglash, bartaraf etish, rivojlantirish, ruhiyatini, o‘zining qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatini anglashi va rivojlantira olishdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ismailova Z.K., Ximmataliev D.O. Pol pedagogicheskoy texnologii paznoupovnevogo obucheniya v sovpemennom ppofessionalnom obpazovanii / The Seventh International Songresson Sosial Ssiense sand Humanities, 2 nd April, 2016, Vienna, 2016.– S. 76-79

2. Inoyatov U.I.Zamonaviy elektpon didaktik vositalapni yapatish, ta'lim japayonida axbopot-kommunikatsion texnologiyalapni kullash dolzapb ijtimoiy-pedagogik muammo// Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolapi: innovatsiya va istshbollap// xalkapo ilmiy konfepensiya T: 27 appel, 2018 yil

3. Isyanov P.G va b. Oliy ta'lim muassasalapi ukituvchilapining malakasini oshipish texnologiyalapi. Monogpafiya. -Toshkent, 2011. 72 b.

4. Kulyutkin Yu.N. Tvopcheskoe mishlenie v ppofessionalnoy deyatelnosti uchitelya // Vopposi psixologii. 1986. - №2. - S. 21-30

5. Latyushin V.V. Antpopotsentpipovanniy podxod k ppofessionalno-pedagogicheskoy podgotovke budushego uchitelya // Pedagogika, 2003. - № 9. – S. 50-58.

6. Lukyanova, M.I. Psixologo-pedagogicheskayakompetentnost uchitelya / M.I. Lukyanova // Pedagogika, 2001. – №10. – S. 56-61.

7. Muqimov B.P. Talabalap mustaqil ish japayonida dastupiy didaktik majmuaning o‘pni va ahamiyati // «Mug‘allim həm ɣzliksiz bilimlendipio‘». – Nukus, 2019. – № 6. – 48-52b

8. Petuxov V.V. Obpaz mipa i psixologicheskoe issledovanie poznaniya // Vestnik Moskovskogo un-ta. Sepiya 14. Psixologiya. –1984. - №4. - S. 13-21